

O'ZBEKISON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

MATEMATIK ANALIZ VA ALGEBRA KAFEDRASI

HUSANOVA MAHFUZA BAXTIYOROVNAning
“5460100 – matematika” ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

**UCH KARRALI INTEGRALLARNING
MEXANIKAGA TADBIQLARI**
mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

E. Eshdavlatov

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Fizika – matematika fakulteti

dekani: _____ prof. B. Xayriddinov

“ _____ ” _____ 2011 yil

Qarshi - 2011

MUNDARIJA

Kirish -----	6
I bob. Uch karrali integrallar va uni hisoblash.-----	12
1-§. Uch karrali integrallar va uni hisoblash.-----	12
2-§. Uch karrali integrallarda o'zgaruvchilarni almashtirish-----	22
II bob. Uch karrali integrallarning tadbiqlari.-----	34
3-§. Uch karrali integrallarning mexanikaga tadbiqlari.-----	34
4-§. Vektor analiz elementlari.-----	42
Xulosa.-----	51
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.-----	52

KIRISH

Matematik analiz fanida integral hisob kursi eng muhim o'rinda turib, ko'pgina tabiatdagi, shuningdek mexanika va fizika fani va uning turli amaliy masalalarida uchraydi va integrallarni hisoblashga keltiriladi. Ayniqsa mexanikaning ko'p masalalari karrali integrallarga bog'liq.

Hozirgi zamon matematikasi boshqa tabiiy fanlar bilan birga yangi muammolarni hal qilmoqda. Masalan, mexanikada karrali integrallar yordamida og'irlik markazi, inersiya momentlari va boshqa kattaliklarni hisoblash osonroq bo'ladi. Shuningdek, vektor analiz elementlari yordamida mexanik qonunlarini matematik modeli tuzilib hisoblashlari matematik jarayonga keltiriladi. Shuning uchun ushbu mavzu muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Bu yo'nalish bo'yicha kerakli natijalarni [1,2,3,4,5,6,7] adabiyotlarda topish mumkin.

Mazkur bitiruv malakaviy ishda uch karrali integral va uning mexanikada tadbirlari misollar keltirilgan holda o'rganildi.

Bitiruv malakaviy ishning mavzusini dolzarbli

Uch karrali integral va uning mexanikada tadbirlarini o'rganish dolzarb mavzu hisoblanadi. Chunki bu mavzu fizika, mexanika va matematika fanlarini uzviy bog'liqligini bildirib turadi. Integral hisobni matematik fizika va mexanika masalalarida qo'llaganimizda ko'proq vektor formadan foydalanish qulayroq bo'ladi. Shuning uchun vektor analiz tushunchalari hamda integral formulalarni vektor ko'rinishlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifasi esa mexanika va fizika masalalarini uch karrali integral orqali hisoblanishini o'rganishdan iboratdir.

BMI ning ilmiyligi va ahamiyati

Mavzuga oid barcha adabiyotlar to'plandi. Shu adabiyotlardan foydalanib, uch karrali integral va uning tadbirlari chuqur o'rganildi va shu o'rganishlar asosida BMI yozildi. Ushbu BMI mavzu juda amaliy ahamiyatga egadir.

Bitiruv malakaviy ish kirish qism, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

Kirish qismida o'rganilayotgan mavzu haqida umumiy ma'lumotlar berilgan.

I bobda uch karrali integral va uning hisoblash usullari keltirilgan. Uch karrali integralning aniqlanishi va ta'rifi keltirildi.

Biror (V) sohada $f(x, y, z)$ funksiya berilgan bo'lsin. Bu sohani fazoviy to'r orqali chekli sondagi $(V_1), (V_2), \dots, (V_n)$ bo'laklarga bo'lamiz. Bu bo'laklar mos ravishda V_1, V_2, \dots, V_n hajmlarga ega bo'lsin. i – chi (V_i) bo'lakdan ixtiyoriy (ξ_i, η_i, ζ_i) nuqta olib, bu nuqtadagi funksiyaning $f(\xi_i, \eta_i, \zeta_i)$ qiymatini shu bo'lakchanning hajmi V_i ga ko'paytiramiz. Barcha bo'lakchalardagi bunday ko'paytmalarni yig'ib, ushbu

$$\sigma = \sum_{i=1}^n f(\xi_i, \eta_i, \zeta_i) dV_i \quad (0.1)$$

integral yig'indini tuzamiz.

Ta'rif. (V_i) bulaklarning diametri nolga intilganda integral yig'indining chekli J limiti $f(x, y, z)$ funksiyaning (V) soha bo'yicha uch karrali integrali deyiladi va

$$J = \iiint_{(V)} f(x, y, z) dV = \iiint_{(V)} f(x, y, z) dx dy dz \quad (0.2)$$

kabi belgilanadi [1-8].

Uch karrali integralni hisoblashning ba'zi hollarini keltiramiz.

Faraz qilaylik qaralayotgan sohamiz $(T) = [a, b, c, d; e, f]$ to'g'ri burchakli parallelopipeddan iborat bo'lsin. Shu sohada $f(x, y, z)$ funksiya berilgan bo'lsin. (T) sohaning yz tekislikdagi proeksiyasi $(R) = [c, d; e, f]$ to'g'ri to'rtburchakdan iborat.

Teorema. Agar $f(x, y, z)$ funksiya uchun

$$\iiint_{(T)} f(x, y, z) dV \quad (0.3)$$

uch karrali integral mavjud va $[a, b]$ oraliqdagi har bir tayinlangan x uchun

$$I(x) = \iint_{(R)} f(x, y, z) dR \quad (0.4)$$

ikki karrali integral va shuningdek

$$\int_a^b dx \iint_{(R)} f(x, y, z) dR \quad (0.5)$$

takroriy integral mavjud bo'lsa

$$\iiint_{(T)} f(x, y, z) dT = \int_a^b dx \iint_{(R)} f(x, y, z) dR \quad (0.6)$$

tenglik o'rinli bo'ladi [1-8].

agar (V) sohada $\frac{\partial P}{\partial x}$ va $\frac{\partial Q}{\partial y}$ hosilalari bilan birga uzluksiz bo'lgan $P(x, y, z)$ va $Q(x, y, z)$ funksiyalar uchun

$$\iiint_{(V)} \frac{\partial P}{\partial x} dx dy dz = \iint_{(S)} P(x, y, z) dy dz \quad (0.7)$$

$$\iiint_{(V)} \frac{\partial Q}{\partial y} dx dy dz = \iint_{(S)} Q(x, y, z) dx dz \quad (0.8)$$

formulalarga ega bo'lamiz.

Bu uchta (0.1), (0.2), (0.3) formulalarni qo'shib, Ostrogradskiyning umumiy formulasini hosil qilamiz:

$$\iiint_{(V)} \left(\frac{\partial P}{\partial x} + \frac{\partial Q}{\partial y} + \frac{\partial R}{\partial z} \right) dx dy dz = \iint_{(S)} P(x, y, z) dy dz + Q(x, y, z) dz dx + R(x, y, z) dx dy \quad (0.9)$$

Endi uch karrali integralda o'zgaruvchilarni almashtirish qanday bo'lishini tushunturib o'tamiz.

Fazo xyz to'g'ri burchakli koordinatalar sistemasiga, boshqa bir fazo esa $\xi\eta\zeta$ koordinatalar sistemasiga ega bo'lsin. Bu fazolarda mos ravishda (S) va (Σ) sirtlar bilan chegaralangan ikkita (D) va (Δ) yopiq sohalarni qaraylik. Bu sohalar bir – biri bilan quyidagi formulalar

$$\left. \begin{aligned} x &= x(\xi, \eta, \zeta) \\ y &= y(\xi, \eta, \zeta) \\ z &= z(\xi, \eta, \zeta) \end{aligned} \right\} \quad (0.10)$$

bilan o'zaro bir qiymatli uzluksiz munosabat bilan bog'langan bo'lsin. Buning uchun (Σ) sirtning nuqtalariga (S) sirtning nuqtalari mos kelishi kerak va aksincha.

(0.10) funksiyalar (Δ) sohada uzluksiz xususiy hosilalarga ega bo'lsin. U holda

$$\frac{D(x, y, z)}{D(\xi, \eta, \zeta)} \quad (0.11)$$

yakobian ham (Δ) sohada uzluksiz funksiya bo'ladi. Bu ditermenantni har doim noldan farqli va ishorasini saqlasin deb hisoblaymiz.

Agar (Δ) sohada ushbu

$$\xi = \xi(u, v), \quad \eta = \eta(u, v), \quad \zeta = \zeta(u, v) \quad (0.12)$$

bo'lakli-silliq sirtni olsak, (0.10) formula bu sirtni D sohadagi bo'lakli-silliq sirtga akslantiradi. Bu sirt esa

$$\begin{aligned} x &= x(\xi(u, v), \eta(u, v), \zeta(u, v)) = x(u, v), \quad y = y(u, v) \\ z &= z(u, v) \end{aligned} \quad (0.13)$$

tenglama bilan aniqlanadi.

xyz va $\xi\eta\zeta$ fazolardagi (D) va (Δ) sohalar orasidagi (0.12) moslik o'rnatilgan bo'lsin. (0.13) formuladagi barcha shartlar bajarilgan deb hisoblab ushbu tenglik

$$\begin{aligned} &\iiint_{(D)} f(x, y, z) dx dy dz = \\ &= \iiint_{(\Delta)} f(x(\xi, \eta, \zeta), y(\xi, \eta, \zeta), z(\xi, \eta, \zeta)) |J(\xi, \eta, \zeta)| d\xi d\eta d\zeta \end{aligned} \quad (0.14)$$

bu erda $J(\xi, \eta, \zeta) = \frac{D(x, y, z)}{D(\xi, \eta, \zeta)}$, o'rinli ekanligini ko'rsatamiz. Bunda $f(x, y, z)$

funksiyani uzluksiz deb faraz qilamiz va chekli sondagi bo'lakli-silliq sirtlarda uzilishga ega bo'lsin.

II bobda uch karrali integralning mexanikaga tadbirlari o'rganilgan bo'lib, misollar yordamida tadbirlari olingan.

Tabiiyki, barcha geometrik va mexanik kattaliklar fazodagi (V) jismning massasiga bog'liqdir. Bunday holni uch karrali integral orqali ifodalaymiz.

ρ orqali (V) jismning ixtiyoriy nuqtadagi zichligini belgilaylik: u nuqtaning koordinatalarini funksiyasi bo'ladi va bu funksiyani har doim uzluksiz deb faraz qilamiz. $dm = \rho dV = \rho dx dy dz$ massa elementlarini yig'ib chiqamiz va barcha massa kattaliklar uchun

$$m = \iiint_{(V)} \rho dV = \iiint_{(V)} \rho dx dy dz \quad (0.15)$$

ega bo'lamiz.

Elementar statistik momentlar uchun ushbu

$$dM_{yz} = x dm = x \rho dV,$$

$$dM_{zx} = y dm = y \rho dV,$$

$$dM_{xy} = z dm = z \rho dV,$$

munosabatlar urinli bo'lishini topamiz. Statistik momentlarni topish formulasi

$$\begin{aligned}
M_{yz} &= \iiint_{(V)} x\rho dV = \iiint_{(V)} x\rho dx dy dz, \\
M_{zx} &= \iiint_{(V)} y\rho dV = \iiint_{(V)} y\rho dx dy dz, \\
M_{xy} &= \iiint_{(V)} z\rho dV = \iiint_{(V)} z\rho dx dy dz,
\end{aligned}
\tag{0.16}$$

iborat bo'ladi.

Og'irlik markazining koordinatalari uchun

$$\xi = \frac{\iiint_{(V)} x\rho dV}{m}, \quad \eta = \frac{\iiint_{(V)} y\rho dV}{m}, \quad \zeta = \frac{\iiint_{(V)} z\rho dV}{m}
\tag{0.17}$$

formulalar urinli bo'ladi [1-5].

Bir jinsli jism uchun $\rho = const$ bo'ladi va og'irlik markazining koordinatalari uchun

$$\xi = \frac{\iiint_{(V)} x\rho dV}{m}, \quad \eta = \frac{\iiint_{(V)} y\rho dV}{m}, \quad \zeta = \frac{\iiint_{(V)} z\rho dV}{m}
\tag{0.18}$$

munosabatlar urinli bo'ladi.

Koordinata o'qlariga nisbatan inersiya momentlari uchun

$$\begin{aligned}
I_x &= \iiint_{(V)} (y^2 + z^2)\rho dV, \quad I_y = \iiint_{(V)} (z^2 + x^2)\rho dV, \\
I_z &= \iiint_{(V)} (x^2 + y^2)\rho dV,
\end{aligned}
\tag{0.19}$$

formulalar o'rinli bo'ladi.

Koordinata tekisliklariga nisbatan inersiya momentlari

$$I_{zy} = \iiint_{(V)} x^2\rho dV, \quad I_{xz} = \iiint_{(V)} y^2\rho dV, \quad I_{xy} = \iiint_{(V)} z^2\rho dV
\tag{0.20}$$

formulalar bilan hisoblanadi.

Xulosa qismida bitiruv malakaviy ishda olingan natijalar keltirilgan.

I BOB. Uch karrali integrallar va uni hisoblash

1-§. Uch karrali integral va uni hisoblash.

Avvalo uch karrali integralga keladigan masalalarni ko'rib chiqaylik. Ulardan biri jismning massasini hisoblash haqida masala [1-5].

Massa bilan to'ldirilgan biror (V) jism berilgan bo'lsin. Uning har bir $M(x, y, z)$ nuqtasida bu jismning $\rho = \rho(M) = \rho(x, y, z)$ zichligi ma'lum bo'lsin. Shu jismning m massasini aniqlash talab etilgan bo'lsin.

Bu masalani echish uchun (V) sohani bo'laklarga ajratamiz: $(V_1), (V_2), \dots, (V_n)$ uning bo'laklari bo'lsin va har bir bo'lakdan $M_i(\xi_i, \eta_i, \zeta_i)$ nuqtani tanlaylik. Har bir (V_i) bo'lakda zichlik o'zgarmas va $\rho(\xi_i, \eta_i, \zeta_i)$ ga teng. U holda bo'lakning massasi m_i taqriban

$$m_i \approx \rho(\xi_i, \eta_i, \zeta_i)V_i$$

ga teng. Butun jismning massasi esa taqriban

$$m \approx \sum_{i=1}^n \rho(\xi_i, \eta_i, \zeta_i)V_i$$

teng bo'ladi. Bo'laklarning diametrini $d(V_i)$ desak, bo'linishning diametri $d_V = \max_{1 \leq i \leq n} d(V_i)$

nolga intilsa, u holda bu taqribiy tenglik aniq bo'lib,

$$m = \lim_{d_V \rightarrow 0} \sum_{i=1}^n \rho(\xi_i, \eta_i, \zeta_i)dV \quad (1.1)$$

va masala echildi.

Bu masalani echimidan ko'rinadiki, bunday qatorlardan limit olish integral

Yig'indilardan limit olishga o'xshash bo'layapti. Bunday limitlar ko'proq mexanika va fizika masalalarida uchraydi. Bu limitning qiymati uch karrali integral deb ataladi. U holda jismning massasi

$$m = \iiint_{(V)} \rho(x, y, z) dV \quad (1.2)$$

ko'rinishda yoziladi.

Endi uch karrali integralning mavjud bo'lish shartlarini keltiramiz.

Biror (V) sohada $f(x, y, z)$ funksiya berilgan bo'lsin. Bu sohani fazoviy to'r orqali chekli sondagi $(V_1), (V_2), \dots, (V_n)$ bo'laklarga bo'lamiz. Bu bo'laklar mos ravishda V_1, V_2, \dots, V_n hajmlarga ega bo'lsin. i - chi (V_i) bo'lakdan ixtiyoriy (ξ_i, η_i, ζ_i) nuqta olib, bu nuqtadagi funksiyaning $f(\xi_i, \eta_i, \zeta_i)$ qiymatini shu bo'lakchanning hajmi V_i ga ko'paytiramiz. Barcha bo'lakchalardagi bunday ko'paytmalarni yig'ib, ushbu

$$\sigma = \sum_{i=1}^n f(\xi_i, \eta_i, \zeta_i) dV_i$$

integral yig'indini tuzamiz [1,2].

Ta'rif. (V_i) bulaklarning diametri nolga intilganda integral yig'indining chekli J limiti $f(x, y, z)$ funksiyaning (V) soha bo'yicha uch karrali integrali deyiladi va

$$J = \iiint_{(V)} f(x, y, z) dV = \iiint_{(V)} f(x, y, z) dx dy dz$$

kabi belgilanadi [1].

Bu chekli limit faqat chegaralangan funksiyalar uchun mavjud bo'ladi. Bunday funksiyalar uchun σ integral yig'indidan tashqari yana Darbu yig'indilarini ham tuzib olishimiz kerak:

$$s = \sum_{i=1}^n m_i V_i, \quad S = \sum_{i=1}^n M_i V_i,$$

bu erda

$$m_i = \inf_{(V_i)} \{f\}, \quad M_i = \sup_{(V_i)} \{f\}.$$

Uch karrali integralning mavjud bo'lishi uchun

$$\lim_{\lambda_v \rightarrow 0} (S - s) = 0$$

yoki

$$\lim_{\lambda_v \rightarrow 0} \sum_{i=1}^n \omega_i V_i = 0$$

shartni bajarilishi zarur va etarli. Bu erda $\omega_i = M_i - m_i$ $f(x, y, z)$ funksiyaning (V_i) sohadagi tebranishi deyiladi.

Bundan har qanday uzluksiz funksiyaning integrallanuvchiligi kelib chiqadi.

Integrallanuvchi funksiyalar va uch karrali integralning ba'zi muhim xossalarini keltiramiz [3,4].

1^o. Agar $(V) = (V') + (V'')$ bo'lsa,

$$\iiint_{(V)} f(x, y, z) dV = \iiint_{(V')} f(x, y, z) dV + \iiint_{(V'')} f(x, y, z) dV.$$

Chap tomondagi integrallarning mavjudligidan o'ng tomondagi integralning ham mavjudligi kelib chiqadi va aksincha.

2^o. Agar $k = const$ bo'lsa,

$$\iiint_{(V)} kf(x, y, z) dV = k \iiint_{(V)} f(x, y, z) dV.$$

Chap tomondagi integrallarning mavjudligidan o'ng tomondagi integralning ham mavjudligi kelib chiqadi va aksincha.

3^o. Agar (V) sohada $f(x, y, z)$ va $g(x, y, z)$ funksiyalar integrallanuvchi bo'lsa, $f \pm g$ funksiya ham (V) sohada integrallanuvchi va

$$\iiint_{(V)} (f(x, y, z) \pm g(x, y, z)) dV = \iiint_{(V)} f(x, y, z) dV \pm \iiint_{(V)} g(x, y, z) dV$$

munosabat o'rinli.

4^o. Agar (V) sohada integrallanuvchi $f(x, y, z)$ va $g(x, y, z)$ funksiyalar uchun $f \leq g$ tengsizlik bajarilsa,

$$\iiint_{(V)} f(x, y, z) dV \leq \iiint_{(V)} g(x, y, z) dV$$

tengsizlik ham o'rinli bo'ladi.

5^o. $f(x, y, z)$ funksiya integrallanuvchi bo'lsa, $|f(x, y, z)|$ funksiya ham integrallanuvchi bo'ladi va

$$\left| \iiint_{(V)} f(x, y, z) dV \right| \leq \iiint_{(V)} |f(x, y, z)| dV$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi.

6^o. (V) sohada integrallanuvchi $f(x, y, z)$ funksiya uchun

$$m \leq f(x, y, z) \leq M$$

tengsizlik o'rinli bo'lsa,

$$mV \leq \iiint_{(V)} f(x, y, z) dV \leq MV$$

tengsizlik ham o'rinli bo'ladi.

Shu o'rinda o'rta qiymat haqida teorema uchun

$$\iiint_{(V)} f(x, y, z) dV = \mu V \quad (m \leq \mu \leq M)$$

tenglikdan foydalanamiz. $f(x, y, z)$ funksiya uzluksiz bo'lgan holda ushbu formulani quyidagi

$$\iiint_{(V)} f(x, y, z) dV = f(\bar{x}, \bar{y}, \bar{z})V \quad (1.3)$$

ko'rinishda ham yozish mumkin, bu erda $(\bar{x}, \bar{y}, \bar{z})$ nuqta (V) sohaning biror nuqtasi.

Chegarasi o'zgaradigan soha bo'yicha uch karrali integralni kiritamiz.

(v) - chegarasi o'zgaruvchili soha bo'lsin. U holda

$$\Phi((v)) = \iiint_{(v)} f(x, y, z) dV \quad (1.4)$$

munosabat o'rinli.

Endi xuddi shunga o'xshash $\Phi((v))$ funksiya dan berilgan M nuqtada soha bo'yicha hosila tushunchasini ham kiritish mumkin, ya'ni ushbu

$$\lim_{(v) \rightarrow M} \frac{\Phi((v))}{v}$$

limit $\Phi((v))$ funksiya dan (v) soha bo'yicha hosilasini ifodalaydi.

7⁰. Agar integral ostidagi funksiya uzluksiz bo'lsa, (1.4) integraldan M nuqtada soha bo'yicha hosilasi integral ostidagi funksiyaning shu nuqtadagi qiymatiga teng.

$$f(M) = f(x, y, z).$$

Shuning uchun yuqoridagi (1.4) integral $f(x, y, z)$ funksiya uchun qaysidir ma'noda «boshlang'ich» funksiya sifatida qabul qilsa bo'ladi.

Uch karrali integralni hisoblashning ba'zi hollarini keltiramiz [3,4].

Faraz qilaylik qaralayotgan sohamiz $(T) = [a, b, c, d; e, f]$ to'g'ri burchakli parallelopipeddan iborat bo'lsin. Shu sohada $f(x, y, z)$ funksiya berilgan bo'lsin. (T) sohaning yz tekislikdagi proeksiyasi $(R) = [c, d; e, f]$ to'g'ri to'rtburchakdan iborat.

Teorema. Agar $f(x, y, z)$ funksiya uchun

$$\iiint_{(T)} f(x, y, z) dV \quad (1.5)$$

uch karrali integral mavjud va $[a, b]$ oraliqdagi har bir tayinlangan x uchun

$$I(x) = \iint_{(R)} f(x, y, z) dR \quad (1.6)$$

ikki karrali integral va shuningdek

$$\int_a^b dx \iint_{(R)} f(x, y, z) dR \quad (1.7)$$

takroriy integral mavjud bo'lsa

$$\iiint_{(T)} f(x, y, z) dT = \int_a^b dx \iint_{(R)} f(x, y, z) dR \quad (1.8)$$

tenglik o'rinli bo'ladi [3,4,5].

Isbot. $[a, b]$, $[c, d]$ va $[e, f]$ oraliqlarni

$$\begin{aligned} x_0 &= a < x_1 < \dots < x_i < \dots < x_n = b, \\ y_0 &= c < y_1 < \dots < y_j < \dots < y_m = d, \\ z_0 &= e < z_1 < \dots < z_k < \dots < z_l = f, \end{aligned}$$

nuqtalar yordamida bo'laklarga bo'lamiz, o'z navbatida (T) parallelopiped ham

$$\begin{aligned} (T_{i,j,k}) &= [x_i, x_{i+1}; y_j, y_{j+1}; z_k, z_{k+1}] \\ (i &= 0, 1, \dots, n-1; j = 0, 1, \dots, m-1; k = 0, 1, \dots, l-1) \end{aligned}$$

elementar parallelopipedlarga bo'linadi. Bir vaqtda (R) to'g'ri to'rtburchak ham

$(R_{j,k}) = [y_j, y_{j+1}; z_k, z_{k+1}]$ elementar to'g'ri to'rtburchakka bo'linadi. Agar

$$m_{i,j,k} = \inf_{(T_{i,j,k})} \{f\}, \quad M_{i,j,k} = \sup_{(T_{i,j,k})} \{f\},$$

deb olsak, δ^0 xossaga ko'ra $\forall x \in [x_i, x_{i+1}]$ uchun

$$m_{i,j,k} \Delta y_j \Delta z_k \leq \iint_{(R_{j,k})} f(x, y, z) dy dz \leq M_{i,j,k} \Delta y_j \Delta z_k$$

ega bo'lamiz. $\forall x = \xi_i$ qiymatlarni fiksirlab j va k larning barcha qiymatlari bo'yicha tengsizlikda yig'ib chiqamiz va

$$\sum_j \sum_k m_{i,j,k} \Delta y_j \Delta z_k \leq I(\xi_i) \leq \sum_j \sum_k M_{i,j,k} \Delta y_j \Delta z_k$$

tengsizlikni hosil qilamiz. Bu erda

$$I(\xi_i) = \iint_{(R)} f(\xi_i, y, z) dy dz.$$

Bu tengsizlikni Δx_i ga ko'paytirib i ning qiymatlari bo'yicha yig'ib chiqamiz:

$$\sum_i \sum_j \sum_k m_{i,j,k} \Delta x_i \Delta y_j \Delta z_k \leq \sum_i I(\xi_i) \Delta x_i \leq \sum_i \sum_j \sum_k M_{i,j,k} \Delta x_i \Delta y_j \Delta z_k.$$

Chetki hadlar (1.5) integral uchun Darbu yig'ndilari hisoblanadi. $\Delta x_i, \Delta y_j, \Delta z_k$ lar nolga intilganda (1.5) integralga teng bo'ladi. O'rta had esa $I(\xi_i)$ funksiyaning integral yig'indisi bo'lib, $\Delta x_i \rightarrow 0$ da (1.7) integralga teng bo'ladi va (1.8) tenglikning bajarilishi kelib chiqadi. Teorema isbotlandi [3,4].

Agar

$$\int_e^f f(x, y, z) dz \tag{1.9}$$

integral ham fiksirlangan $\forall x \in [a, b]$ va $\forall y \in [c, d]$ lar uchun mavjud bo'lsa, (1.8) dagi ikki karrali integral takroriy integral bilan almashtirilib

$$\iiint_{(T)} f(x, y, z) dT = \int_a^b dx \int_c^d dy \int_e^f f(x, y, z) dz \tag{1.10}$$

hosil qilamiz.

Shunday qilib, uch karrali integralni

hisoblash uchta sodda integralni ketma-ket hisoblashga keltiriladi. (1.10) da x, y, z o'zgaruvchilarni joylashishini ixtiyoriy ravishda olish mumkin.

Endi ixtiyoriy soha bo'yicha uch karrali integralni hisoblaymiz. (V) - ixtiyoriy jism berilgan bo'lsin. Agar $f(x, y, z)$ funksiya (V) sohada aniqlangan bo'lib, bu funksiya bilan birga $f^*(x, y, z)$ funksiya ham berilgan bo'lsin. Bu funksiya (V) sohani to'ldiruvchi (T) to'g'ri to'rtburchakli parallelopipedda aniqlangan, ya'ni

$$f^*(x, y, z) = \begin{cases} f(x, y, z) & (V) \text{ da} \\ 0 & (V) \text{ ning tashqarisida.} \end{cases}$$


Shu yo'l orqali yuqorida keltirilgan usulga kelamiz. (V) jism $x = x_0$ va $x = X$ tekisliklar orasida joylashgan bo'lsin. (P_x) orqali bu jismning yz tekislikdagi proeksiyasini belgilaylik.

U holda ikki va uch karrali integralning mavjudligidan

$$\iiint_{(V)} f(x, y, z) dV = \int_{x_0}^X dx \iint_{(P_x)} f(x, y, z) dy dz \quad (1.8^*)$$

bo'lishi kelib chiqadi. Bu (1.8) formulani analogi bo'ladi.


Endi (V) jism mos ravishda yuqori va quyidan $z = z(x, y)$ va $z = Z(x, y)$ sirtlar bilan chegaralangan «silindrik brus»dan bo'lsin. Bu sohaning xy tekislikdagi proeksiyasi (D) figura va (K) egri chiziq bilan chegaralangan bo'lsin. Demak, (V) jism yon tomondan z o'qiga parallel bo'lgan silindrik sirt va (K) yo'naltiruvchi egri chiziq bilan chegaralangan ekan. U holda (1.7) formulaning analogi



$$\iiint_{(V)} f(x, y, z) dV = \iint_{(D)} dx dy \int_{z_0(x, y)}^{Z(x, y)} f(x, y, z) dz \quad (1.7^*)$$

ko'rinishda bo'ladi. Buning uchun ikki karrali va oddiy integralning mavjudligi talab etiladi.

Agar (D) soha $y = y_0(x)$ va $y = Y(x)$ ($x_0 \leq x \leq X$) chiziqlar bilan chegaralangan egri chizikli trapetsiyadan iborat bo'lsa, (V) jism yuqoridagi ikkinchi tipdagidek bo'ladi. Ikki karrali integralni (1.8*) yoki (1.7*) kabi almashtirsak,



$$\iiint_{(V)} f(x, y, z) dV = \int_{x_0}^X dx \int_{y_0(x)}^{Y(x)} dy \int_{z_0(x, y)}^{Z(x, y)} f(x, y, z) dz \quad (1.10^*)$$

formulani hosil qilamiz. Bu formula (1.10) formulaning umumlashgan holi hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan hollar uchun misollar ko'rib chiqamiz.

1-misol. Ushbu

$$K = \iiint_{(V)} z dx dy dz$$

integral hisoblansin. Bu erda $(V) - \frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} + \frac{z^2}{c^2} \leq 1$ ellipsoidning yuqori yarim qismidan iborat soha bo'lsin.

Bu (V) jismning xy tekislikdagi proeksiyasi $\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} \leq 1$ ellipsdan iboratdir. Shuning uchun x ning o'zgarish oralig'i $-a$ dan a gacha bo'ladi, tayinlangan x ning qiymatlarida y o'zgaruvchi $-\frac{b}{a}\sqrt{a^2-x^2}$ dan $\frac{b}{a}\sqrt{a^2-x^2}$ gacha o'zgaradi. Berilgan (V) jism pastdan xy tekislik, yuqoridan ellipsoid sirt bilan chegaralangan, tayinlangan x va y

lar uchun z o'zgaruvchi 0 dan $c\sqrt{1-\frac{x^2}{a^2}-\frac{y^2}{b^2}}$ gacha o'zgaradi.

Shunday qilib, (1.10*) formulaga ko'ra

$$\begin{aligned} I &= \int_{-a}^a dx \int_{-\frac{b}{a}\sqrt{a^2-x^2}}^{\frac{b}{a}\sqrt{a^2-x^2}} dy \int_0^{c\sqrt{1-\frac{x^2}{a^2}-\frac{y^2}{b^2}}} z dz = \frac{c^2}{2} \int_{-a}^a dx \int_{-\frac{b}{a}\sqrt{a^2-x^2}}^{\frac{b}{a}\sqrt{a^2-x^2}} \left(1 - \frac{x^2}{a^2} - \frac{y^2}{b^2}\right) dy = \\ &= c^2 \int_{-a}^a dx \int_0^{\frac{b}{a}\sqrt{a^2-x^2}} \left(1 - \frac{x^2}{a^2} - \frac{y^2}{b^2}\right) dy = \frac{2bc^2}{3a^3} \int_{-a}^a (a^2 - x^2)^{3/2} dx = \\ &= \frac{4bc^2}{3a^2} \int_0^a (a^2 - x^2)^{3/2} dx = \frac{\pi}{4} abc^2. \end{aligned}$$

2-misol. Ushbu

$$I = \iiint_{(A)} z dx dy dz$$


integral hisoblansin. Bu erda (A) jism

$z^2 = \frac{h^2}{R^2}(x^2 + y^2)$ konusli sirt va $z = h$ tekislik

bilan chegaralangan soha.

(a) konusli sirtni xy tekislikdagi proeksiyasi $(Q) x^2 + y^2 \leq R^2$ doiradan iborat.

(1.7*) formuladan foydalanib



$$I = \iint_{(Q)} dx dy \int_{\frac{h}{R}\sqrt{x^2+y^2}}^h z dz = \frac{1}{2} \iint_{(Q)} \left[h^2 - \frac{h^2}{R^2}(x^2 + y^2) \right] dx dy$$

bo'ladi. Bundan qutb koordinatalariga o'tib,

$$I = \frac{h^2}{2R^2} \int_0^{2\pi} d\theta \int_0^R (R^2 - r^2) r dr = \frac{\pi R^2 h^2}{4}.$$

(b) boshqa usulda integralning qiymatini

$$I = \int_0^h z dz \iint_{(D)} dx dy$$

ko'rinishda ham hisoblab topish mumkin [1-8]. Bu erda (D) xy tekislikdagi proeksiyasi

bilan balandlik yotgan z tekislikning kesishmasi. Bu proeksiya $\frac{Rz}{h}$ radiusli doiradan iborat.

Shuningdek ikki karrali integral doiraning yuzi $\frac{\pi R^2}{h^2} z^2$ ga teng. Bundan

$$I = \int_0^h \frac{\pi R^2}{h^2} z^3 dz = \frac{\pi R^2 h^2}{4}$$

bo'lishini topamiz.

2-§. Uch karrali integralda o'zgaruvchilarni almashtirish.

Matematik analizning umumiy kursida ikki karrali integrallarni o'rganayotganimizda Grin formulasi bilan tanishganmiz. Bu formula ikki karrali integrallar bilan egri chiziqli integrallar orasidagi bog'lanishni ifodalaydi. Uning uch karrali integraldagi analogi Ostrogradskiy formulasi deb yuritilib, u uch karrali integrallarni sirt integrallari bilan bog'laydi [3-6].

Bo'lakli – silliq

$$\begin{aligned} (S_1) \quad z &= z_0(x, y) \\ (S_2) \quad z &= Z(x, y) \quad (z_0 \leq Z) \end{aligned}$$

sirt va z o'qiga parallel bo'lgan (S_3) silindrik sirtlar bilan chegaralangan (V) jismni qaraylik. Bu jismning xy tekislikdagi proeksiyasi bulakli – silliq (K) egri chiziq bilan chegaralangan bo'lsin.

Faraz qilaylik, (V) sohada $\frac{\partial R}{\partial z}$ hosilasi bilan birga uzluksiz bo'lgan (sohaning chegarasidan tashqarisida) $R(x, y, z)$ funksiya aniqlangan bo'lsin. U holda

$$\iiint_{(V)} \frac{\partial R}{\partial z} dx dy dz = \iint_{(S)} R(x, y, z) dx dy \quad (2.1)$$

formulaga egamiz. Bu erda (S) shu jism bilan chegaralangan sirt va o'ng tomondagi integral uning tomonlarining ichkarisi bo'yicha olingan.

Haqiqatan ham, 1§ dagi (1.10^{*}) formulaga ko'ra

$$\begin{aligned} \iiint_{(V)} \frac{\partial R}{\partial z} dx dy dz &= \iint_{(D)} dx dy \int_{z_0(x,y)}^{z(x,y)} \frac{\partial R}{\partial z} dz = \\ &= \iint_{(D)} R(x, y, Z(x, y)) dx dy - \iint_{(D)} R(x, y, z_0(x, y)) dx dy. \end{aligned}$$

Agar qaralayotgan sirtni integralga qo'llasak, (1.3) va (1.3^{*}) formulalarga ko'ra

$$\iiint_{(V)} \frac{\partial R}{\partial z} dx dy dz = \iint_{(S_2)} R(x, y, z) dx dy + \iint_{(S_1)} R(x, y, z) dx dy$$

bo'ladi. Bunda o'ng tomondagi birinchi integral (S_2) sirtning yuqori tomoni bo'yicha ikkinchi integral esa (S_1) ning pastki tomoni bo'yicha olingan. Ushbu (S_3) sirtning tashqarisi bo'yicha olingan

$$\iint_{(S_2)} R(x, y, z) dx dy$$

integralni yuqoridagi tenglikning o'ng tomoniga qo'shsak tenglik o'zgarmaydi. Chunki bu integral nolga teng. Bu uchta sirlarni birlashtirsak (2.1) formulaga kelamiz. (2.1) formula Ostrogradskiy formulasining xususiy holini ifodalaydi.

Xuddi shunga o'xshash, agar (V) sohada $\frac{\partial P}{\partial x}$ va $\frac{\partial Q}{\partial y}$ hosilalari bilan birga uzluksiz

bo'lgan $P(x, y, z)$ va $Q(x, y, z)$ funksiyalar uchun

$$\iiint_{(V)} \frac{\partial P}{\partial x} dx dy dz = \iint_{(S)} P(x, y, z) dy dz \quad (2.2)$$

$$\iiint_{(V)} \frac{\partial Q}{\partial y} dx dy dz = \iint_{(S)} Q(x, y, z) dx dz \quad (2.3)$$

formulalarga ega bo'lamiz [1-8].

Bu uchta (2.1), (2.2), (2.3) formulalarni qo'shib, Ostrogradskiyning umumiy formulasini hosil qilamiz:

$$\iiint_{(V)} \left(\frac{\partial R}{\partial x} + \frac{\partial Q}{\partial y} + \frac{\partial P}{\partial z} \right) dx dy dz = \iint_{(S)} P(x, y, z) dy dz + Q(x, y, z) dz dx + R(x, y, z) dx dy \quad (2.4)$$

Tenglikning o'ng tomonidagi integral ikkinchi tur sirt integralining umumiy ko'rinishini ifodalaydi. Bu integral formula soha bo'yicha integralni shu sohani o'z ichiga olgan yopiq sirt bo'yicha integralga almashtiradi.

Agar qaralayotgan sirt integralni birinchi tur deb qarajak, Ostrogradskiy formulasining boshqa ko'rinishdagi integralini hosil qilamiz.

$$\iiint_{(V)} \left(\frac{\partial P}{\partial x} + \frac{\partial Q}{\partial y} + \frac{\partial R}{\partial z} \right) dx dy dz = \iint_{(S)} (P(x, y, z) \cos \lambda + Q(x, y, z) \cos \mu + R(x, y, z) \cos \gamma) dS \quad (2.5)$$

bu erda λ, μ, γ lar (S) sirtning ichki normalining koordinata o'qlari bilan tashkil etgan burchaklari.

Eslatma. Grin, Stoks va Ostrogradskiy formulalarida bitta ma'no birlashgan. Ular soha bo'yicha olingan integrallarni uning chegarasi bo'yicha integrallar orqali ifodalaydi [3]. Grin formulasi ikki o'lchovli fazo uchun, Stoks formulasi ham ikki ulchovli uchun bo'lib, bunda fazo egri chiziqli fazodir. Ostrogradskiy formulasi esa uch o'lchovli fazo uchun keltirilgan hollari hisoblanadi.

Integral hisobning asosiy formulasi

$$\int_a^b f'(x)dx = f(b) - f(a)$$

ni bu formulalarning bir o'lchovli fazo uchun analogi deb qabul qilish mumkin.

Endi uch karrali integralda o'zgaruvchilarni almashtirish qanday bo'lishini tushuntirib o'tamiz.

Fazo xyz to'g'ri burchakli koordinatalar sistemasiga, boshqa bir fazo esa $\xi\eta\zeta$ koordinatalar sistemasiga ega bo'lsin. Bu fazolarda mos ravishda (S) va (Σ) sirtlar bilan chegaralangan ikkita (D) va (Δ) yopiq sohalarni qaraylik. Bu sohalarda bir – biri bilan quyidagi formulalar

$$\left. \begin{aligned} x &= x(\xi, \eta, \zeta) \\ y &= y(\xi, \eta, \zeta) \\ z &= z(\xi, \eta, \zeta) \end{aligned} \right\} \quad (2.6)$$

bilan o'zaro bir qiymatli uzluksiz munosabat bilan bog'langan bo'lsin. Buning uchun (Σ) sirtning nuqtalariga (S) sirtning nuqtalari mos kelishi kerak va aksincha.

(2.6) funksiyalar (Δ) sohada uzluksiz xususiy hosilalarga ega bo'lsin. U holda

$$\frac{D(x, y, z)}{D(\xi, \eta, \zeta)} \quad (2.7)$$

yakabian ham (Δ) sohada uzluksiz funksiya bo'ladi. Bu ditermenantni har doim noldan farqli va ishorasini saqlasin deb hisoblaymiz.

Agar (Δ) sohada ushbu

$$\xi = \xi(u, v), \quad \eta = \eta(u, v), \quad \zeta = \zeta(u, v) \quad (2.8)$$

bo'lakli-silliqli sirtni olsak, (2.6) formula bu sirtni D sohadagi bo'lakli-silliqli sirtga akslantiradi. Bu sirt esa

$$\begin{aligned} x &= x(\xi(u, v), \eta(u, v), \zeta(u, v)) = x(u, v), \quad y = y(u, v) \\ z &= z(u, v) \end{aligned} \quad (2.9)$$

tenglama bilan aniqlanadi.

Silliq sirt bo'lgan hol uchun qaraylik. Unda maxsus nuqtalar yo'q, ushbu ditermenantlar

$$\frac{D(\eta, \zeta)}{D(u, v)}, \frac{D(\xi, \zeta)}{D(u, v)}, \frac{D(\xi, \eta)}{D(u, v)} \quad (2.10)$$

bir vaqtda nolga teng emas. U holda ushbu munosabatlar

$$\begin{aligned} \frac{D(y, z)}{D(u, v)} &= \frac{D(y, z)}{D(\eta, \zeta)} \cdot \frac{D(\eta, \zeta)}{D(u, v)} + \frac{D(y, z)}{D(\xi, \zeta)} \cdot \frac{D(\xi, \zeta)}{D(u, v)} + \frac{D(y, z)}{D(\xi, \eta)} \cdot \frac{D(\xi, \eta)}{D(u, v)}, \\ \frac{D(z, x)}{D(u, v)} &= \frac{D(z, x)}{D(\eta, \zeta)} \cdot \frac{D(\eta, \zeta)}{D(u, v)} + \frac{D(z, x)}{D(\xi, \zeta)} \cdot \frac{D(\xi, \zeta)}{D(u, v)} + \frac{D(z, x)}{D(\xi, \eta)} \cdot \frac{D(\xi, \eta)}{D(u, v)}, \\ \frac{D(x, y)}{D(u, v)} &= \frac{D(x, y)}{D(\eta, \zeta)} \cdot \frac{D(\eta, \zeta)}{D(u, v)} + \frac{D(x, y)}{D(\xi, \zeta)} \cdot \frac{D(\xi, \zeta)}{D(u, v)} + \frac{D(x, y)}{D(\xi, \eta)} \cdot \frac{D(\xi, \eta)}{D(u, v)} \end{aligned}$$

noldan farqli.

ξ, η, ζ sonlar xyz fazoning nuqtasining qiymatlarini aniqlaydi, yoki shu nuqtaning egri chiziqli koordinatalari deb yuritiladi. xyz tekislikning nuqtasining har bir koordinatasi o'zgarmas qiymatni saqlaydi va koordinatali sirtni tashkil etadi. Bunday koordinatali sirtlar oilasi hammasi bo'lib uchtdan iborat bo'ladi. (D) sohaning har bir nuqtasida bunday koordinatali sirtlar oilasi o'tadi. (D) va (Δ) sohalarni o'zaro bir qiymatli mosligi o'rnatiladi. Ba'zan bu moslik amaliyotda buziladi.

Ba'zi bir koordinatlar sistemasini ko'rib chiqaylik [3,4].

1) Silindrik koordinatlar sistemasi qutb koordinatasi bilan z appilikatali xy tekislik bilan bog'laydi. Koordinatali ko'rinishi ushbu

$$x = \rho \cos \theta, \quad y = \rho \sin \theta, \quad z = z$$

formula ko'rinishidan iborat bo'ladi.


Bu formulalar yordamida

$$0 \leq \rho < +\infty, \quad 0 \leq \theta < 2\pi, \quad -\infty < z < +\infty$$

soha butun xyz fazoga akslanadi. $\rho = 0$, $z = z$ to'g'ri chiziq $(0, 0, z)$ nuqtaga akslanadi. Shu holatda o'zaro bir qiymatli moslik buziladi.

Qaralayotgan hollarda koordinatali sirtlar quyidagicha bo'ladi.

(a) $\rho = \text{const}$ – silindrik sirt oz o'qiga



parallel bo'ladi: yo'naltiruvchisi markazi koordinata boshida bo'lgan xy tekislikdagi aylanadan iboratdir.

(b) $\theta = const$ – oz o'qidan o'tuvchi yarim tekislik.

(c) $z = const$ – xy tekislikka parallel tekislik.

Yuqorida almashtirishning yakobiani

$$\begin{vmatrix} x_\rho & y_\rho & z_\rho \\ x_\theta & y_\theta & z_\theta \\ x_z & y_z & z_z \end{vmatrix} = J = \begin{vmatrix} \cos\theta & \sin\theta & 0 \\ -\rho\sin\theta & \rho\cos\theta & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{vmatrix} = \rho \begin{vmatrix} \cos\theta & \sin\theta \\ -\sin\theta & \cos\theta \end{vmatrix} = \rho.$$

$\rho = 0$ dan boshqa hollarda yakobian musbat ishorani saqlaydi.

2) Sferik koordinatalar sistemasini fazodagi qutb koordinatalarni Dekart koordinatalari bilan bog'laydi:

$$x = r \sin\varphi \cos\theta, \quad y = r \sin\varphi \sin\theta, \quad z = r \cos\varphi$$

bu erda $0 \leq r < +\infty$, $0 \leq \varphi \leq \pi$, $0 \leq \theta < 2\pi$ r, φ, θ kattaliklarning geometrik ma'nosi rasmda ko'rsatilgan. r OM kesmaning radius vektori (qutb bilan M nuqtani tutashiruvchi). φ – z o'qi bilan (qutb o'qi bilan) shu vektor orasidagi burchak, θ – OM radius vektorni xy tekislikdagi proeksiya $OP = r \sin\varphi$ ni x o'qi bilan tashkil etgan burchak.

Bu holda ham biz yana o'zaro bir qiymatli moslikni buzish holiga to'g'ri kelamiz. $r\varphi\theta$ fazodagi $r = 0$ tekislik $x = y = z = 0$ koordinata boshiga akslanadi, $\varphi = 0$ (yoki π), $r = r$ to'g'ri chiziq $x = y = 0, z = r$ nuqtaga akslanadi.


Koordinatali sirt uchta oilani tashkil etadi

(a) $r = const$, markazi koordinata boshida bo'lgan konsentrik sfera.

(b) $\varphi = const$, balandligi oz o'qli doiraviy konus.

(c) $\theta = const$, oz o'qidan o'tuvchi yarim tekislik.

Bu almashtirishning yakobiani



$$J = \begin{pmatrix} \sin \varphi \cos \theta & \sin \varphi \sin \theta & \cos \varphi \\ r \cos \varphi \cos \theta & r \cos \varphi \sin \theta & -r \sin \varphi \\ -r \sin \varphi \sin \theta & r \sin \varphi \cos \theta & 0 \end{pmatrix} = r^2 \sin \varphi$$

ga teng.

$r = 0$, $\varphi = 0$ (yoki π) hollardan boshqa hollarda yakobian plyus ishorani saqlaydi. Bu holda yakobian nolga teng.

3) Fazoni o'zini – o'ziga almashtirish

$$x = \frac{\xi}{\xi^2 + \eta^2 + \zeta^2}, \quad y = \frac{\eta}{\xi^2 + \eta^2 + \zeta^2}, \quad z = \frac{\zeta}{\xi^2 + \eta^2 + \zeta^2}$$

formula orqali ifodalanadi.

4) Elliptik koordinatalar sistemasasi.

Qo'sh fokusli va qo'sh asosli ikkinchi tartibli

$$\frac{x^2}{\lambda^2} + \frac{y^2}{\lambda^2 - h^2} + \frac{z^2}{\lambda^2 - R^2} = 1 \quad (0 < h < R)$$

sirtlar oilasini qaraylik. Bu sirt $\lambda > R$ da ellipsoiddan iborat, $R > \lambda > h$ da ikki pallali giperboliddan iboratdir.

Fazoning har bir (x, y, z) nuqtasi (koordinata tekisliklarida yotmagan) dan har bir tipdagi bittadan sirt o'tadi. Haqiqatan ham, tenglamaning o'ng tomonidan

$$\lambda^2 (\lambda^2 - h^2)(\lambda^2 - R^2) - (\lambda^2 - R^2)(\lambda^2 - h^2)x^2 - \\ - \lambda^2 (\lambda^2 - R^2)y^2 - \lambda^2 (\lambda^2 - h^2)z^2 = 0$$

ega bo'lamiz. $\lambda = 0$ da manfiy ishoraga, $\lambda = h$ da musbat ishoraga, $\lambda = R$ da yana manfiy ishoraga, λ dan katta qiymatlarida yana musbat ishoralarga ega bo'lamiz. Bundan kelib chiqadiki, tenglama uchta musbat ildizga ega:

birinchisi $\lambda > R$ (ellipsoid),

ikkinchisi $\mu < R$, h dan katta (bir pallali giperboloid),

uchunchisi $\nu < h$ da (ikki pallali giperboloid).

Yuqoridagi tenglamaning ildizlari xossasidan foydalanib, λ^2 ga nisbatan kubik tenglama deb qarashimiz mumkin, ya'ni:

$$\lambda^2 + \mu^2 + \nu^2 = x^2 + y^2 + z^2 + h^2 + R^2 \\ \lambda^2 \mu^2 + \mu^2 \nu^2 + \nu^2 \lambda^2 = (h^2 + R^2)x^2 + R^2 y^2 + h^2 z^2 + h^2 R^2; \\ \lambda^2 \mu^2 \nu^2 = h^2 R^2 x^2.$$

Bundan esa

$$x = \pm \frac{\lambda\mu\nu}{hR}, \quad y = \pm \frac{\sqrt{(\lambda^2 - h^2)(\mu^2 - h^2)(h^2 - \nu^2)}}{h\sqrt{R^2 - \nu^2}}$$

$$z = \pm \frac{\sqrt{(\lambda^2 - R^2)(R^2 - \mu^2)(R^2 - \nu^2)}}{R\sqrt{R^2 - h^2}}$$

bo'lishini topamiz. λ, μ, ν sonlarni nuqtaning egri chiziqli koordinatalari deb qarash mumkin. Ya'ni elliptik koordinatalar deb ataymiz. Uchta koordinatali sirtlar sifatida yuqoridagi sirtlar deb (ellipsoid, bir pallali giperboloid, ikki pallali giperboloid) qarash mumkin.

Almashtirishning yakobiani

$$J = \frac{(\lambda^2 - \mu^2)(\lambda^2 - \nu^2)(\mu^2 - \nu^2)}{\sqrt{(\lambda^2 - h^2)(\lambda^2 - R^2)(\mu^2 - h^2)(R^2 - \mu^2)(h^2 - \nu^2)(R^2 - \nu^2)}}$$

ko'rinishdan iborat.

xyz fazodagi (D) jismning hajmini uch karrali integral orqali ifodalagan edik. Endi bu jismning $\xi\eta\zeta$ fazodagi mos (Δ) jismning hajmini hisoblaymiz.

(D) jismning hajmi ikkinchi tur sirt integrali orqali

$$D = \iint_{(\Delta)} z dx dy$$

hisoblanadi. (D) sohaning hajmini egri chiziqli koordinatalar sistemasiga o'tib

hisoblaymiz. Buning uchun (2.5) sirtning (2.3) parametrik tenglamasidan foydalanamiz [2-4].

$$C = \frac{D(x, y)}{D(u, v)}$$

deb faraz qilib, (1.8) formuladan

$$D = \iint_{(E)} z C du dv$$

egamiz. (E) soha uv tekislikda o'zgaradi.

Shuningdek, x, y o'zgaruvchi u, v ga bog'liq, ξ, η, ζ o'zgaruvchiga nisbatan

$$C = \frac{D(x, y)}{D(\xi, \eta)} \cdot \frac{D(\xi, \eta)}{D(u, v)} + \frac{D(x, y)}{D(\eta, \zeta)} \cdot \frac{D(\eta, \zeta)}{D(u, v)} + \frac{D(x, y)}{D(\zeta, \xi)} \cdot \frac{D(\zeta, \xi)}{D(u, v)}$$

munosabat o'rinli bo'ladi. C ning qiymatini yuqoridagi integralga qo'yamiz va

$$D = \iint_{(E)} z \left[\frac{D(x,y)}{D(\xi,\eta)} \cdot \frac{D(\xi,\eta)}{D(u,v)} + \frac{D(x,y)}{D(\eta,\zeta)} \cdot \frac{D(\eta,\zeta)}{D(u,v)} + \frac{D(x,y)}{D(\zeta,\xi)} \cdot \frac{D(\zeta,\xi)}{D(u,v)} \right] dudv \quad (2.11)$$

topamiz.

Bu integralni ikkinchi tur sirt integralga qo'yamiz va (Σ) sirtning tashqi tomoni bo'yicha integral:

$$\iint_{(\Sigma)} z \left[\frac{D(x,y)}{D(\xi,\eta)} d\xi d\eta + \frac{D(x,y)}{D(\eta,\zeta)} d\eta d\zeta + \frac{D(x,y)}{D(\xi,\zeta)} d\xi d\zeta \right] \quad (2.12)$$

(2.12) integralga Ostrogradskiy formulasini qo'llaysak

$$D = \pm \iiint_{(\Delta)} \left\{ \frac{\partial}{\partial \xi} \left[z \frac{D(x,y)}{D(\eta,\xi)} \right] + \frac{\partial}{\partial \eta} \left[z \frac{D(x,y)}{D(\xi,\zeta)} \right] + \frac{\partial}{\partial \zeta} \left[z \frac{D(x,y)}{D(\zeta,\eta)} \right] \right\} d\xi d\eta d\zeta \quad (2.13)$$

(Δ) soha bo'yicha uch karrali integralni hosil qilamiz.

Integral ostidagi ifoda

$$\begin{aligned} & \frac{\partial z}{\partial \xi} \cdot \frac{D(x,y)}{D(\eta,\xi)} + \frac{\partial z}{\partial \eta} \cdot \frac{D(x,y)}{D(\xi,\zeta)} + \frac{\partial z}{\partial \zeta} \cdot \frac{D(x,y)}{D(\zeta,\eta)} + \\ & + z \left[\frac{\partial}{\partial \xi} \cdot \frac{D(x,y)}{D(\eta,\xi)} + \frac{\partial}{\partial \eta} \cdot \frac{D(x,y)}{D(\xi,\zeta)} + \frac{\partial}{\partial \zeta} \cdot \frac{D(x,y)}{D(\zeta,\eta)} \right] \end{aligned}$$

teng. Yig'g'indida birinchi qo'shiluvchi yakobianga teng, ya'ni

